

**O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI NAMOYANDASI NISHOTIYNING
“HUSN-U DIL” DOSTONIDAGI LISONIY XUSUSIYATLAR**

Saidova Muhabbatxon Shukrullayevna,
NamDU f.f.n., dotsent
e-mail: muhabbatxonsaidova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Nishotiy uslubi individual poetik ohangga egaligi, o‘zbek adabiy tilining leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba ekanligi, Nishotiyning ijtimoiy-siyosiy fikr va mulohazalari “Husn-u Dil” dostonida o‘z ifodasini topganligi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: “Husni dil” dostoni, lingvistik tahlil, til xususiyatlari, adabiy til, Nishotiy uslubi, poetik qurilish, morfologik, arxaik shakllar, sintaktik qurilish, inversiya va izofa konstruksiyalari, uslub, metafora, tashbeh, tazod vositalari badiiylik.

Аннотация. В статье говорится, что стиль Нисхоти обладает индивидуальной поэтической тональностью, что он является важным источником для изучения лексических, морфологических и синтаксических особенностей узбекского литературного языка, что общественно-политические мысли и взгляды Нисхоти выражены в эпосе «Хусну Дил».

Ключевые слова: эпос «Хусни Дил», лингвистический анализ, особенности языка, литературный язык, стиль Нисхоти, поэтическая конструкция, морфологическая, архаичная форма, синтаксическая конструкция, конструкции обращения и сложения, стиль, метафора, метафора, средства контраста, искусство.

Abstract. The article says that Nishoti’s style has an individual poetic tone, that it is an important source for studying the lexical, morphological and syntactic features of the Uzbek literary language, that Nishoti’s socio-political thoughts and views are expressed in the epic “Khusnu Dil”.

Key words: epic “Husni Dil”, linguistic analysis, language features, literary language, Nishoti style, poetic construction, morphological, archaic form, syntactic construction, constructions of inversion and addition, style, metaphor, metaphor, means of contrast, art.

Kirish. XVIII asr o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri — Nishotiy ijodi klassik an’analarni davom ettirgan holda, davrning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muhitini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Uning g‘azal va boshqa lirik asarlari til, uslub va poetik qurilish jihatidan lingvistik tahlil uchun boy material beradi. Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrda yetishgan iste’dodli lirik va epik shoirdir. U adabiyotdagina emas, balki adabiy til soxasida ham Alisher Navoiy an’anasini davom ettirdi. [1]

Nishotiy uslubi XVIII asr adabiy tilining tipik namunasi bo‘lishi bilan birga, individual poetik ohangga ham ega. Nishotiy asarlari XVIII asr o‘zbek adabiy tilining leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning ijodida arabiy va forsiy leksik qatlam ustun bo‘lsa-da, turkiy asos saqlangan. Morfologik jihatdan arxaik shakllar faol. Sintaktik qurilishda inversiya va izofa konstruksiyalari muhim o‘rin tutadi. Uslubiy jihatdan esa metafora, tashbeh va tazod vositalari orqali badiiylik yuksak darajada ta’minlangan.

Nishotiyning ijtimoiy-siyosiy fikr va mulohazalari “ Husn-u Dil” dostonida o‘z ifodasini topdi. Bu asar shoir tilini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Nishotiy

o‘z dostonini xalq og‘zaki ijodidan ustalik bilan foydalangan holda yozdi. Xalq og‘zaki ijodidagi qoliplash usulidan foydalanib, uning ichiga ta‘limiy tarzda bir qancha masalalarni kiritdi. Ular Nishotiy tilining soda xalq tilida yaqinlashishiga olib keladi [1].

“Husn-u dil” dostonining tili mumtoz epik she‘riyat uslubi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bundan tashqari, dostonning ayrim boblari qofiyalangan nasr uslubida yozilgan. Masalan: “Husni dilnavaz, Vafobanum Sahib e‘zaz va Nazi Tannaz, G‘amzai g‘ammaz Gesui fusunsaz va Maxliqai aynapardaz va Shahtakallumi sehrparva va Mehribanui baso‘zu guzal, Qamatsardari balandparvoz, Sarvi sarafraz, yani Faudi sahibniyaz... xizmatga tayyor ediler”.

Ayrim o‘rinlarda xalq etaklarida uchrovchi muqaddimani ham ko‘ramiz: Bar edi yunanada birav padshah, Erdi jahan shahi anga haki rah.

Nishotiy xalq og‘zaki ijodi uslubida ergashdi, doston tilini ham ommabop qilishga intildi. Shuning uchun maqollari, hikmatli so‘zlari va iboralarini asar misralari mazmunida ustalik bilan singdirdi. Masalan: Lek demish kimsaki diqqatlidir, Ash egasi birla yesa tatlidir. Har kishining bar esa gar aqli tuz, Avval ancha ko‘z keragu so‘ngra so‘z.

Muhokama va natijalar. Keltirilgan misralarda “osh egasi bilan totli”, “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqollari keltirilgandir. Nishotiy o‘z asarlarida xalq maqollaridan foydalangan ekan, ulardan ilhomlanib, o‘zi ham xalq maqollari darajasida iboralar ijod qiladi: To‘y-u aza xush turur ahab ila, Shadi-yu g‘am ham yana atrab ila [2].

Nishotiy asarlarida arabcha va forsha o‘zlashmalar faol qo‘llanadi. Bu hol XVIII asr adabiy tilining an‘anaviy xususiyatini namoyon qiladi. Ishq o‘tida yondim, dil barbod erur, Hajr zulmidin bu jon faryod erur. Ishq, dil, barbod, hajr, zulm — arabcha va forsha kelib chiqishli leksemalar. Bu birikmalar poetik-simvolik ma‘noga ega bo‘lib, tasavvufiy semantik maydonni shakllantiradi. “Ishq” leksemasi ilohiy va majoziy ma‘nolarda qo‘llanib, polisemantik xususiyat kasb etadi. Bu holat mazkur davrning adabiy tilining umumiy xususiyatidir. Masalan: “Husn mulkinging sultonidur ul dilbarim”. Bu misrada “husn”, “sulton” kabi arabiy so‘zlar, “dilbar” kabi forsiy leksemalar ishtirok etgan. Ular semantik jihatdan yuqori uslubiy qatlamga mansub bo‘lib, badiiy pafosni kuchaytiradi. Arabiy so‘zlar ko‘pincha abstrakt ma‘nolarni (ishq, vafo, sabr, hijron), forsiy leksemalar esa hissiy-obrazli tasvirni (gul, bulbul, sham‘, parvona) ifodalaydi. Shu bilan birga, shoir turkiy asosni saqlab qoladi. Masalan: “Ko‘nglim sening ishqingda yonar”. Bu yerda “ko‘ngil”, “yonar” kabi turkiy so‘zlar markaziy pozitsiyada turibdi. Turkiy qatlam hissiy yaqinlik va tabiiylikni ta‘minlaydi. Nishotiyda ishq mavzusiga doir sinonimlar qatorini kuzatamiz: ishq – muhabbat – ulfat – visol – muhabbat otashi. Bu holat semantik boylikni oshiradi va poetik intonatsiyani kuchaytiradi. [2]

XVIII asr adabiy tiliga xos ravishda -dur, -mish, -gay kabi qo‘shimchalar faol qo‘llanadi: “sultonidur”, “kelmish”, “bo‘lg‘ay”. Bu shakllar arxaik tusga ega bo‘lib, matnga tantanaviylik baxsh etadi. Forsiy izofa modeli keng ishlatiladi: “gul-i ruxsor”, “sham‘-i-vasl”. Bu qurilishlar sintaktik jihatdan atributiv bog‘lanishni ifodalasa, uslubiy jihatdan badiiylikni kuchaytiradi. Shoir she‘riy vazn talabiga ko‘ra inversiyadan foydalanadi: “Sensiz ko‘ngul orom topmas”. Bu yerda odatiy so‘z tartibi o‘zgargan. Sabab-natija munosabatli konstruksiyalar uchraydi: “Ishqingda yondim, chunki sabr etolmadim”. Bu holat mantiqiy izchillikni ta‘minlaydi. Nishotiyda ishq “otash”, “daryo”, “zindon” sifatida tasvirlanadi. Bu konseptual metaforalar hissiy kuchni oshiradi. “Yuzing oy kabi” Oy obrazi an‘anaviy go‘zallik simvolidir. Hijron – visol, sabr – nola kabi antonimik juftliklar drammatizmni kuchaytiradi. Nishotiy ijodida tasavvufiy ma‘no qatlami mavjud. Ishq ilohiy ma‘noda talqin qilinadi. “Fano”, “baqo”, “darvesh” kabi terminlar qo‘llanadi. Bu holat uning ma‘naviy dunyoqarashini ifoda etadi.

Nishotiy o‘z asarining mumkin qadar sodda, ma‘noli, ravon va obrazli bo‘lishi uchun xalq tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original o‘xshatish, istiora, kinoya, mubolag‘a, sifatlash, majoz va qarama-qarshi qo‘yish usullarini qo‘lladi. Masalan: Boldi ayan turfa kitali qabir, Qo‘qusidin tashladi hamlani sher. [5]

Shoir bu misrada ishq lashkari bilan aql navkari o‘rtasidagi jang tasvirini berar ekan, urushning shiddatidan sher ham qo‘rqib, o‘z qornidagi homilasini tashlab qo‘ydi, deb mubolag‘a qiladi. Shoir dostonida omonim so‘zlardan ham o‘rinli foydalanadi. Bir so‘z bilan bir necha ma‘noni ifodalashga harakat qiladi: Yuz uza churuk yag‘ach erdi burun. Har year borsa , bariban ul burun. Bu parchada birinchi misradagi “burun” so‘zi odam a‘zolaridan biri ma‘nosida , ikkinchi misrada avval, ilgari ma‘nosidadir.

XVII-XVIII asrlarning boshqa shoir- yozuvchilarida bo‘lgani kabi Nishotiyning “Husni Dil” dostonida ham mahalliy shevalarga hos hususiyatlar uchraydi. Doston tilida Buxoro va Xorazm shevalariga hos so‘z va iboralar hamda grammatik unsurlar topiladi. Masalan: margi nav muborak, himmati sipahdar, husni dilnavoz, Nazi Tannaz kabilar. Nishotiy asarlari tilida morfologik jihatdan quyidagi xususiyatlarni uchratish mumkin. “Husni Dil” dostonida turlanish kategoriyasi hozirgi o‘zbek tiliga o‘xshaydi. Ammo qaratqich kelishigining qoshimchasi -ning , -ing shaklida ishlatiladi. Arshning astida erur ganji raz... Qamating ag‘udshida qildi nigah...[5]

Tushum kelishigi qo‘shimchasi –ni, ni,-i, shaklida, chiqish kelishigi qo‘shimchasi -din , din shaklida keladi: Qorqusidin tashladi hamlani sher, Kelturung aqli dedi kishvarsitan.

Navoiy va Fuzuliy asarlarida bo‘lgani kabi Nishotiy asarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga, -a tarzida ishlatiladi: Har biriga nam edi bir ehtiram, Har yer barsa, bariban ul burun. [5]

Nishotiy asarlarida -gay/-g‘ay affiksi bilan ifodalangan kelasi zamon shakllari faol: “Kelgay ul yor, degay jonimga shodlik.” Bu shakl eski o‘zbek adabiy tilida istak va taxmin ma’nolarini ifodalagan. Morfologik jihatdan -gay affiksi modallik kategoriyasi bilan bog‘liq. “Ko‘nglum ichra siring pinhon erur.” “Ko‘nglum” shaklida I shaxs egalik qo‘shimchasi (-um) qo‘llangan bo‘lib, bu mumtoz matnlarda fonetik variantlilikni ko‘rsatadi (-im/-um). Qaratqich kelishigi ko‘pincha izofa konstruksiyasi orqali ifodalanadi: “Gul yuzing husni.” Olmoshlar Nishotiy asarlari tilida hozirgi o‘zbek tilidagi olmoshlarga o‘xshaydi. Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari ul, an tarzida, shuningdek, qayu so‘roq olmoshi, nimarsa, kimarsa so‘roq-gumon olmoshlari ishlatiladi: Har ne yo‘q, andin yaman, andin yaman Parvarish aylar ani ayvan ara, Vah qayu ayvanki dilu jan ara. [5]

Nishotiy tilida ravish –lik affiksi bilan hosil qilinadi. Ravishdosh esa -iban affiksi orqali ifodalanadi: Talpiniban oylaki suvsiz baliq, Jon yoq edi anga bugun tanglalik.

Yordamchi so‘zlardan bilan, birla, ila, dag‘i- kabi ko‘makchilar; kim, -ki, gar, agar, ne, lek kabi bog‘lovchilar ishlatiladi. Bog‘lovchilardan na Nishotiy dostoni tilida ko‘p qo‘llanadi: Anda na zavqu, na huzuru, na nur... Anda na ilmu, na amal, na yaqin...

“Husn-u Dil” dostoni leksikasida ulus, kabir, qapu(eshik), g‘ulg‘ula, valvala, dag‘i, qaram kabi so‘zlar uchraydi. Mazkur asar XVIII asr o‘zbek dostonchiligidagina emas, balki o‘sha davr o‘zbek adabiy tili tarixida ham muhim o‘rin egallagan ajoyib she’riy qissa hisoblanadi.

XVII-XVIII asrlardagi ilg‘or adabiyotning o‘sib, kamol topishida xalq og‘zaki ijodining roli katta bo‘ldi. Adabiy tilde esa halq tili unsurlari, sheva hususiyatlari o‘z ifodasini topdi. Xalqning boy og‘zaki adabiy merosidan, til boyligidan ta’sirlanish natijasida o‘sha davr shoirlari tilida freziologik iboralar, turg‘un birikmalar ko‘plab ishlatilina boshlandi. Bu bilan ular o‘z asarlarining xalqchilligini, realistik unsurlar bilan sug‘orilishini ta’min etganlar. Shoirlar o‘z asarlari tilining leksik tarkibi, sintaktik qurilishi, umuman uslubini xalq jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirishga erishganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000.
2. Шамсиддинов М. Эски ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1998.
3. Валиев Қ. Чиғатой тили грамматикаси. – Тошкент, 2001.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси. – Тошкент, 1990.
5. Нишотий. Девон (нашр этилган қўлёзма нусха).